ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOVA FAROG'AT G'AFURJONOVNA

HOFIZ XORAZMIY DEVONI LINGVOPOETIKASI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological sciences

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOVA FAROG'AT G'AFURJONOVNA

"HOFIZ XORAZMIY DEVONI LINGVOPOETIKASI"

10.00.01 – O'zbek tili

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2025

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4025 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**O'razboyev Abdulla Durdibayevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kurboniyazov Gulmurza Allambergenovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Berdak Yusuf filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" oktabr soat 9 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ D-856 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" sentabr da tarqatildi.

(2025-yil "26" sentabr dagi 58 raqamli reestr bayonnomasi).

D.Q.G'ayipov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ... filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.S.Atajanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.T.Yuldashev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b., filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

4

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til tabiati va uning mohiyatini chuqurroq anglash jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar, shuningdek, tabiiy va aniq fanlar metod va yondashuvlaridan foydalanish zarurati tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Ana shu ijobiy vaziyat til masalalari tadqiqiga yondashuvlarning bir qadar o'zgarib, tilshunoslikka oid keng ko'lamdagi tadqiqotlarning bir qismini nutq vaziyati, til muhiti, madaniyat, etnos, ijtimoiy holat, jug'rofiy joylashuv, tamaddunlar muloqoti kabi omillar bilan uzviylikda olib borishga yo'naltirdi. Bu esa o'z navbatida antroposentrik tilshunoslikning qator yo'nalishlari shakllanib, mustaqil rivojlanishiga zamin hozirladi. Xususan, ikki va undan ortiq fanlar kesimida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi qator yo'nalishlar tilshunoslikning tadqiqot obyektlari doirasi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy hayotning barcha jabhalarini barobar qamrab olishini ko'rsatib bera oldi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik tadqiqotlarning adabiyotshunoslik bilan o'zaro uyg'unlashuvi fanlararo integratsiyaning tabiiy va zaruriy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yaqinlashuv, avvalo, til va adabiyotning umumiy asoslari, fikr ifodasi, estetik yuklamasi hamda diskursiv xususiyatlarida o'z aksini topmoqda. Lekin dastlab mana shu yovuqlik mahsuli sanalgan lingvopoetika "bizda tilshunos faqat tilshunos, adabiyotshunos faqat adabiyotshunos" (N.Mahmudov) bo'lishi lozim, degan qarash bois e'tirof etilishi oson kechmadi. Lingvopoetika o'zining tabiati va mohiyatiga ko'ra filologiyaning bir qancha sohalarini qamrab olishga va uning izchilligini saqlashga intiladi. Lingvopoetik tahlil jarayoni nafaqat ijodkorning tili va uslubini, balki asar yaratilgan davrning til xususiyatlarining o'ziga xosligini, muallifning lug'at boyligini, qo'llanilgan ekspressiv usullarni, badiiy obrazlarni lingvistik elementlar orqali aks ettirishni, tilni uning barcha darajalari bo'yicha har tomonlama tekshirishni ham qamrab oladi. Ijodkorlikni kafolatlovchi lingvistik jihatlar va ularning yozuvchi niyatini bildirishdagi vazifasi ilmiy ekspertizadan o'tkaziladi.

O'zbek tilshunosligida zamonaviy filologiyaning dolzarb vazifasi lingvopoetikaning nazariy asoslarini o'rnatish, xususan, uni tizimlashtirish, metodologiyasi va tadqiqot vositalarini tadqiq etishdan iboratdir. Tadqiqotda o'zbek mumtoz adabiyotida katta ahamiyatga ega bo'lgan Hofiz Xorazmiy devonining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish, mumtoz til elementlariga baho berish bilan birga ularning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tish zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish haqida"gi hamda 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani

rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi hamda 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida lingvopoetika sohasining nazariy asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari V.V.Vinogradov, B.A.Larin, V.P.Grigoryev, N.M.Shanskiy, M.E.Konurbayev[1] kabi olimlarning muayyan asarlarida yoritib berilgan. Turk olimi Rejep To'pralining ushbu sohadagi ayrim ishlari hamyurtimiz bo'lgan betakror iste'dod sohibi "Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan"[2]. Nashr uchun qo'lyozma fotonusxasi va Hamid Sulaymon nashri asos qilib olingan. Devonning qo'lyozma faksimilesini butun turkiy xalqlarning ma'naviy hayotida muhim voqea sifatida baholashimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida bajarilgan[3] salmoqli ishlar

[1] Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – Москва, 1969. – 256 с.; Shu muallif. Проблемы русской стилистики. – Москва: Высшая школа, 1981. – 320 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Ленинград: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука, 1979. – 343 с.; Кожин И., и др. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука, 1985. – 221 с.; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1990, – 425 с.; Конурбаев М.Э. Библия Короля Иакова в лингвопоэтическом освещении. – Москва: Диалог – МГУ, 1998. – 69 с.

[2] Toparli. Dr. Reecep, Cagatay Sairi. Hafiz Harezmi. Turk Dunyasi Arastirmalari Degresi, Subat 1984, S. 1-32.; Toparli. Dr. Reecep, Harezmli Hafiz Divanindan Secmeler. Ankara. 1994. Kultur Bakanligi yayinlari 1600, Turk Klasikleri Dizisi 31. X+317 s.№ Toparli. Dr. Reecep, Hafiz Harezmi'nin Sultan Ibrahim"in Olumu Uzerine Yazdigi Mersiye (Trakya Universitesi Fen-Adebiyat Fakultesi Dergisi Prof. Necmettin Hacieminoglu Ozel Sayisi'nda yayimlanacak)

[3] Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – №6. – Б. 48-51.; Shu muallif. А.Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б. 34-36.; Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.; Yo'ldoshev B., Shodiyeva Z. "Ufq" trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari. – Samarqand: SamDU, 2006. – 62 b.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90- йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2004. – 25 б.; Якуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – 21 б.; Шадиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 48 б.; Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Shu muallif. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 40 б.; Жуманазарова Г.У. "Ширин билан Шакар" достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Shu muallif. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 76 б.; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (Phd) дисс. – Тошкент, 2017; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 49; Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 49 б.; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Қарши, 2020. – 45 б.;

mavjud. Xususan, mumtoz merosimiz sanalgan asarlar lingvopoetikasi borasidagi ishlarning kamligi ajablanarli. Ogahiyning tarixiy asarlari lingvopoetikasi va Mutrib Xonaxarobiy devoni lingvopoetikasiga bagʻishlangan ishlar jarayonda ekanidan xabarimiz bor. Adabiyotshunos Jaloliddin Joʻrayev shoir ijodi, shuningdek, biografiyasiga oid muhim maqolalar nashr qildirgan[4]. Hofiz ijodiga oid ayrim izlanishlar M.Inogʻomxoʻjayeva tomonidan amalga oshirilgan boʻlib, olimaning ayrim maqolalari bilan tanishmiz[5]. Shuningdek, M.Sulaymonov Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodiga oid tahliliy maqolalar nashr qildirgan[6].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti "Oʻzbek tilishunosligi" kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi Hofiz Xorazmiy devoniga kirgan sheʼrlarni lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Hofiz Xorazmiy "Devon"idagi poetik namunalarning mumtoz matn lingvopoetikasi nuqtayi nazaridan asosiy qirralarini yoritib berish;

mumtoz matn lingvopoetikasining nazariy xususiyatlari va tadqiqot obʼekti doirasida Hofiz Xorazmiy "Devon"ini lingvopoetikaning muhim manbasi sifatida asoslab berish;

Hofiz Xorazmiy "Devon"i poetikasini til birliklari kesimida tahlil qilish asosida fonetik, grafik va grammatik vositalar lingvopoetikasiga oid masalalarni umumlashtirish;

Hofiz Xorazmiy sheʼriyatidagi onomastik birliklarning (antroponim, toponim, etnonim) oʻziga xos lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish;

leksik birliklarning (omonim, sinonim, antonim) mumtoz matn lingvopoetikasidagi alohida oʻrni va poetik funksiyalarini shoir ijodi misolida koʻrsatib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida "Hofiz Xorazmiy devonining Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang kutubxonasidan topilgan yagona nusxasi faksimilesi tanlangan"[7]. Zarur oʻrinlarda Hamid Sulaymon nashriga murojaat qilinadi.

Tadqiqotning predmeti Hofiz Xorazmiy devoniga kirgan sheʼrlarining

Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 51 б.; Матназаров Ж.К. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. Автореф. – Урганч, 2021. – 165 б.; Erkinova N.E. Eshqobil Shukur sheʼrlarining lingvopoetik tadqiqi: Filol... fanlari...fals.dok... (PhD) diss...avtoref... – Toshkent, 2004. – 66 b.; Akbarova M.Sh. Badiiy matndagi gʻayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari: Filol... fanlari...fals.dok... (PhD) diss...avtoref... – Toshkent, 2004. – 63 b.

[4] Жўраев Ж. Ҳофиз Хоразмийнинг Иброҳим Султонга марсияси.// Sharqshunoslik. 2015. №3-4. – Б. 216-226.; Шу муаллиф. Ўзбек адабиётидаги илк марсия.// "Шарқ юлдузи" журнали. 2015. №6. – Б. 10-21.

[5] Иноғомхўжаева М. Ҳофиз Хоразмий девонида ирсоли масал санъатининг берилишн/ / Адабий мерос /Ўзбекистон ФА Ҳ.С.Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институти. – 1987. – № 1 (39). – Б. 30-35.; Иноғомхўжаева М. Шоир Ҳофиз Хоразмийиинг ҳаёти ҳақида баъзи мулоҳазалар/ / Адабий мерос/ Ўзбекистон ФА, Ҳ.С.Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институти. – 1989. №3 (49). – Б. 15-18.

[6] Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ижодининг Туркияда ўрганилиши //Жаҳон адабиёти, №8. 2018. – Б. 182-186.

[7] Toparlı R. Harezmli Hafiz'in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998. – 1082 s.

lingvopoetik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, zidlash, funksional-stilistik, lingvopoetik, kontekstual-matniy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hofiz Xorazmiy she'riyatida fonetik, grafik va onomastik birliklarning badiiy matn lingvopoetik tuzilmasining shakllanishidagi roli va ahamiyati tizimli asosda tahlil etilib, shoir ijodidagi tovush va harf vositalarining badiiy matn yaratishdagi chuqur o'rnini ochib beruvchi hamda semantik qamrovini kengaytirishdagi funksional vazifalari ilmiy dalillar bilan asoslangan;

mumtoz badiy matn lingvopoetikasi doirasida leksik birliklarning, xususan, shakldosh (omonim), ma'nodosh (sinonim), zid ma'noli (antonim) va uyadosh (giponim) so'zlarning poetik funksiyalari, shuningdek, ularning matnda ekspressiv-emotsional, estetik hamda tasviriy imkoniyatlarini boyitishdagi roli Hofiz Xorazmiy "Devon"i asosida kompleks tarzda dalillangan;

Hofiz Xorazmiy she'riyatida qo'llangan lisoniy vositalarning lingvopoetik tahlili asosida shoirning individual uslubining shakllanish jarayoni hamda uning badiiy-estetik tafakkurini ifodalovchi asosiy tamoyillar va uslubiy mexanizmlar aniqlangan;

tadqiqot natijasida Hofiz Xorazmiy "Devon"i o'zbek mumtoz matni lingvopoetikasini o'rganishda qimmatli manba sifatida kompleks tahlil obyektiga aylantirilganligi, shoir ijodi lingvopoetik aspektda ilk bor ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida "O'zbek tili tarixi", "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Badiiy matn stilistikasi", "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili" fanlari bo'yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishda amaliy jihatdan foydalanish mumkinligi asoslangan;

badiiy matnda mumtoz adiblarimizning teran tafakkuri, til imkoniyatlaridan o'ta hassoslik bilan foydalanish imkoniyatlari lingvopoetik tahlili orqali ochib berilgan;

badiiy matnni o'rganishda lingvopoetik tahlil metodining imkoniyatlari mumtoz matn misolida amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning to'g'ri qo'yilganligi, uning mumtoz poetik matnlardan olingan daliliy misollar asosida yoritishda ushbu sohada dunyo tilshunosligida erishilgan yutuqlarga asoslanganligi, mumtoz nazmiy matnni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish asoslari Hofiz Xorazmiy devoniga kirgan she'rlar tahlili misolida aniq yechim topganligi, umumlashma xulosalar chiqarishda tilshunoslikka oid muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalarning o'zbek lingvopoetikasi sohasida erishilgan yutuqlarni boyitishi, mukammallashtirishi, shuningdek, badiiy matnda estetiklikni hosil qilishda muallifning xos yondashuviga oid yangi ilmiy

xulosalarni taqdim etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati poetik matnlarda til vositalarining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini o'tashi bilan asoslanadi. Ulardan oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlarida "Mumtoz matnning lingvopoetik xususiyatlari", "Poetik tafakkur va poetik shakl", "Mumtoz meros va badiiyat" mavzularida tanlov fanlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hofiz Xorazmiy devoniga kirgan she'rlarining lingvopoetik tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Dissertatsiyaning mumtoz matn lingvopoetikasining asosiy xususiyatlarini obyekt manbaga tatbiq etish orqali o'zbek mumtoz adiblari merosidagi asosiy lingvopoetik tushunchalarga oid xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017 – 2020-yillarda bajarilgan FA-F1-G003-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-iyundagi 249/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy lingvopoetika tadqiqida o'tmish olim va ijodkorlarining nasr va nazmga bo'lgan munosabatlarni aniqlash – surat va ma'no munosabati masalasi, o'z navbatida, matbu, jazolat, salosat, sahli mumtani tushunchalari haqida nazariy mulohazalar bildirishda asos vazifasini bajardi. H.Xorazmiyning fasihligi va balig'ligi xususida keltirilgan misollar yordamida balog'at va fasohat tushunchalariga qo'yiladigan talablar o'rganilishiga erishildi. Shuningdek, Hofiz Xorazmiy she'riyatida grafik vositalarning qamrovi ham ancha keng. Ular orqali alifbo xususiyatlari, mumtoz adabiyot an'analari hamda shoirning xos mahorati kabi omillar bilan bog'liq ravishda mumtoz nazmiy matnlarda fonetik vositalarining o'rni masalasida chiqarilgan xulosalardan unumli foydalanildi.

Hofiz Xorazmiy devoni poetikasining til birliklari kesimida tahlili, xususan, fonetik vositalar, grafik vositalar lingvopoetikasi, onomastik birliklar lingvopoetikasi tadqiqi natijalaridan Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat olib borayotgan A-FA-2019-9 shifrli "Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish" amaliy loyihasida keng foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining 2024-yil 12-iyundagi 105/2-24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari Hofiz Xorazmiy she'riyati tilining eski o'zbek tili davriga xos manbalarning til xususiyatlarini aniqlashda, shuningdek, Xiva adabiy muhiti vakillari tili va uslubini belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy asarlar matnida uchraydigan so'zlarni to'g'ri tabdil qilish, izohlashda foydalanildi. Jumladan, Hofiz Xorazmiy she'riyatida qo'llangan *jazilat, takalluf, tobanda, matbu, dame, kufr, zulf, rashki pariy, she'ri hasan, Non do'st* kabi birliklar Otajonova Farog'at G'afurjonovnaning "Hofiz Xorazmiy devoni lingvopoetikasi" mavzusidagi dissertatsiyasi materiallari asosida talqin qilindi.

Xorazm adabiy muhiti, bu muhitning yorqin vakillari hayoti va ijodini yoritishda, asarlari tiliga xos xususiyatlarni belgilashda xonliklar davridagi ijodkorlar ijodi ham alohida ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda tadqiqot materiallaridan keng foydalanildi.

Dissertatsiyadagi leksik birliklarning mumtoz matn lingvopoetikasida alohida o'rnini, jumladan, shakldosh so'zlarning mumtoz matn lingvopoetikasidagi o'rni, ma'nodosh so'zlarning mumtoz matn lingvopoetikasidagi o'rni, zid ma'noli va o'zakdosh so'zlarning mumtoz matn lingvopoetikasidagi o'rni tadqiqi yuzasidan olingan natijalardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-yil 21-oktabr kuni efirga uzatilgan "Assalom Xorazm!" dasturida hamda 2024-yil 3-iyun kuni Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Tilimizni o'rganamiz" radioeshittirishida foydalanilgan. (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 5-iyundagi 527-sonli va 2024-yil 5-iyundagi 518-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur manbalar ko'rsatuvlarni ma'rifiy va amaliy jihatdan boyitishga hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (4 ta respublika hamda 5 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi hamda vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Mumtoz matn lingvopoetikasining asosiy xususiyatlari va obyekt manba** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan tashkil topgan. Birinchi bobning dastlabki fasli **"O'zbek mumtoz adiblari merosida asosiy lingvopoetik tushunchalar"** tarzida nomlangan. Ushbu paragrafda Hofiz Xorazmiy hayoti, ijodiy faoliyati va ilmiy merosi hamda eski o'zbek adabiy tili takomilida shoir she'riyati tilining o'rni yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi nazmiy matnlar lingvopoetik tahlilida A.Rustamovning fikricha, "Shoirning badiiy mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to'liq anglash uchun uning estetik prinsiplarini aniqlash kerak. Buni bilish uchun esa san'atkorning borliq, jumladan, inson haqidagi fikrlarining falsafiy asoslarini

bilish zarur"[8]. Haqiqatan, bu mulohazalar Hofiz Xorazmiy she'riyati lingvopoetik tadqiqi misolida ham o'z isbotini topadi. E'tiborlisi ayni ma'no va surat masalasi xususida ayrim mulohazalarni Hofiz Xorazmiy she'riyatida ham uchratamiz. Masalan,

> Erur ul shoh voloqadr ham *ma'no-yu suratda*,
> Kim aning qaddina kelsa, libosi faqr bas zebo. (10-g'.)

Shoir ushbu baytda tazod va tanosub orqali ma'no va surat tengligini asllik, mumtozlik, umrboqiylik kabi fazilatlar belgisi sifatida talqin qiladi.

She'r uchun so'z qo'llash va tarkib (bayt qurilmasi va uning qanday birliklardan iboratligi) juda muhim bo'lgani bois uni alohida istiloh bilan nomlaganlar. Bu *jazolat* istilohidir. Atoulloh Husayniy yozganidek, "Jazolat uldurkim, she'rning alfozu tarkibi mustahkamu kuchlug bo'lur, Zahiru Anvariyu Kamoli Ismoil va hokazolarning qasidalari yanglig'. Bu qasida va uzun qit'alarning uslubidur. Alfozu tarkibi kuchlugu mustahkam bo'lg'an she'rni jazl derlar. Jazolatning ofati takalluf depturlar. Jazolat lug'atta kuchlug bo'lmoqtur"[9]. Shunday xususiyatga ega she'rlar esa *jazil* deyiladi[10]. Shu o'rinda *matn* so'zining o'zi ham mustahkamlik (*matonat*)[11] ma'nosi bilan bog'liqligini e'tiborga olishimiz kerak. Hofiz Xorazmiyning barcha she'rlarida jazolatga dalil qiluvchi jihatlarni ko'ramiz.

Masalan,

> Mehrsizin javr etar jong'a bu mahporasi,
> Oshiqining ushbudur toli'i istorasi. (961-g'.),

ya'ni "bu mohpora – oyparcha yor mening jonimga mehrsizlik bilan javr qiladi. Bu oshiqning peshonasiga bitgani shu ekan". Baytda mehrsiz (quyoshsiz, taftsiz ma'nosi bilan), mohpora, tole' (porlab chiquvchi), istora (sitora – yulduz) so'zlari orqali tanosubning go'zal ifodasi yuzaga kelgan.

Mumtoz filologiyamizda shu bilan birga *salosat* tushunchasi ham nazmiy matn lingvopoetikasiga oid istilohlardan sanaladi. Atoulloh Husayniy yozadi: "Salosat uldurkim, she'rning alfozi nozuk tarkibi ravonu yoqimlig' bo'lur... Alfozu tarkibi nozuku ravonu yoqimlig' bo'lg'an she'rni salis derlar. Salosatning ofati bo'shluktur. Salosat lug'atta yumshamoqtur va atash vajhi zohirdur"[12].

Mumtoz nazmiy matn lingvopoetikasiga oid yana bir istiloh bu *sahli mumtani*dir. "Sahli mumtani deb andoq she'rni ayturlarkim, ani aytmoq oson-u yengil ko'runur, ammo aningdek qilib aytmoq mumkin bo'lmas yo qiyin bo'lur". Sahli mumtani o'z nomi bilan tushunish ham yengil bo'lgan, lekin shunday yozish qiyin bo'lgan she'r. Shu munosabat bilan shoirnig quyidagi g'azali ayni sahli mumtani bo'la olishiga shubha qilmaymiz:

> Saning hajring elinda mubtaloman,
> Topa olman bu dard uchun davo man. (734-g'.)

---

[8] O'sha manba(7-iqtibos). – S. 7.
[9] Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадодойиъу-с-санойиъ. Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 273-274.
[10] O'sha manba(9-iqtibos). – Б. 274.
[11] http://arabus.ru/search/متن
[12] O'sha manba(9-iqtibos). – Б. 274.

Bobning ikkinchi fasli "Mumtoz matn lingvopoetikasining asosiy qirralari" deb nomlanadi. Hofiz Xorazmiy devoni lingvopoetikasi tadqiqi asnosida o'zbek mumtoz adabiy matnlari lingvopoetikasining asosiy qirralari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1) O'zbek adabiy matnlari lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda nazmiy va nasriy matn o'rni. O'zbek mumtoz yodnomalari lingvopoetkasi tadqiqida birinchi bosqich, nazarimizda, mumtoz adiblarimizning til va badiiyat masalalariga munosabati aniqlashtirib olishdir. Hofiz Xorazmiy bilan zamondosh shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida dastlab inson uchun nutq nima ekani haqida, so'ngra nasr-u nazm o'rtasidagi farq xususida quyidagilar yozilgan: "Va har odamekim, aning ko'ngli nutqpazir va nutqi dilpazir ermas, insoniyat doirasindin tashqaridur. Va ulamo qoshinda nutq ikki nav'dur: *nasr* va *nazm*. Onikim, istisvob (to'g'rilik) bobida murattab ko'rdilar, "nazm" atadilar. Va onikim, avroq visoqinda parishon topdilar, "nasr" dedilar... Agarchi kalomi izidiy va ahodisi nabaviy vositasindin nasrning sharafi nazmg'a (nisbatan) sobitdur, ammo hakimi alimg'a nazmda hikmattur, zerokim, har johili laim anga yo'l topmas"[13]. Alisher Navoiyning so'z va uning fazilati borasida bildirgan fikrlari bir tomondan salaf mutafakkirlar mulohazalariga hamohang bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zining orginalligi bilan ham farqlanadi. Jumladan, Alisher Navoiy "Xazoyin ul-ma'oniy"ning birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar" debochasini "insonga(gina) nutq qobiliyatining berilishi uning boshqa maxluqotdan mumtozligi, Yaratganning nazdida o'ziga xos buyuk martabasini anglatsa, ana shu nutq ahli aro nazm aytish salohiyatiga ega bo'lish bundan-da katta sharaf, mumtozlar ichra sarafroz bo'lishdir" jumlalari bilan boshlaydi:

> Ulkim, chu jahon xilqatini og'oz etti,
> Sun'i kilkini naqshpardoz etti,
> Inson xaylini nutq ila mumtoz etti,
> Nutq ahlini nazm ila sarafroz etti.

2)Nazmiy matnda fasohat va balog'atga intilish. Mumtoz she'riy matn lingvopoetikasini fasohat va balog'at tushunchalarisiz tahlil va tadqiq qilish imkoni yo'q. Shoirning fasihligi va balig'ligi xususida balog'at va fasohatga qo'yilgan talablarga qay darajada javob berishi asosida so'z ochish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda ko'proq adabiyotshunoslikka oid ishlarda ishlatiladigan *fasohat* va *balog'at* tushunchalari ayni bugungi kundagi lingvopoetika terminlari sanaladi. Arabiyatda *fasohat* الفصاحة grammatik qoidalarni va so'zlarni ma'nolarini buzmay to'g'ri so'zlash va yozishdir.

Hofiz Xorazmiy fasohatini to'laroq tasavvur qilish uchun uning bir qarashda sodda tuyulgan she'rlariga bir nigoh tashlash ham kifoya qiladi. Masalan,

> Noz qilg'ilki, nozanindursan,
> Ofati sabr-u aql-u dindursan. (710-g'.)

Birinchi baytning o'zida *noz* va *nozanin* so'zlari ham tovushdoshlik, ham tazodni hosil qilmoqda.

Balog'at بلاغة to'g'ri va o'z o'rnida gapirish va yozishdir. Bu darajaga

---

[13] Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. №1. – Б. 74.

yetganlar بليغ(yetuk, kamolga yetgan) deb ataladilar[14].

Fasohat va balog'at o'rtasidagi farqlar quyidagilardan iborat:
Fasohat ilmi faqat nutq bilan bog'liq bo'ladi. Balog'at ilmi esa ham nutq, ham ma'noga e'tibor qaratadi;

3)Mumtoz matn lingvopoetikasining matnshunoslik bilan uzviyligi. Mumtoz matn lingvopoetikasining asosiy xususiyatlaridan biri matnshunoslik bilan uzviyligidadir. Qo'lyozma (faksimile) yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot tilshunosdan matnshunos sifatida ham yondashishni talab qiladi. Chunki "matnshunos qo'lyozma nusxadagi xattotlar uslubini diqqat bilan o'rganishi, harflarning "bejirim tasvirlari" o'rtasidagi bog'liqlikka, ularning o'ziga xos bezak-unsurlariga e'tibor berib, xatolik nima sababdan sodir bo'lganini aniqlashi lozim. Ba'zi hollarda, xattotlar so'zni o'qiy olmasalar, kontekstdan kelib chiqib, o'zlaricha matnni tuzatib yoki to'ldirib ketganlar. Matnshunos tomonidan xolis aniqlangan xato qiyosiy tahlil orqali asosiy matnda tuzatib boriladi"[15].

Hofiz Xorazmiy devonini nashrga tayyorlagan o'zbek olimi Hamid Sulaymon xizmatlariga chuqur ehtirom bilan yondashuvchi turkiyalik olim Rejep To'parli Hofiz Xorazmiy devonini "nihoyatda go'zal she'rlarni o'zida mujassam etgan bu devon til tarixi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega" – deb baholar ekan, ayrim mulohazalarini ham bayon etgan.

Bobning uchinchi fasli "Hofiz Xorazmiy devoni – lingvopoetika manbasi sifatida" deb nomlangan bo'lib, Hofiz Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili sifatida har bir misrasi, har bir bayti poetik jihatdan diqqat bilan o'rganilishga loyiq. Fikrimizning isboti uchun ayni badiiyati puxta asarlar tanlanmaganini ko'rsatish maqsadida devondagi dastlabgi ikki g'azalga to'xtalamiz.

Shoirning g'azaliyoti devondan qasida, tarkibband, tarji'band kabi janrlardan keyin qo'lyozmaning 60-sahifasidan boshlanadi. E'tiborli tomoni, shoir g'azallari ichida birinchi g'azal hamd g'azal bo'lishi bilan birgalikda, aynan Yaratgan nomi bilan boshlanadi:

Yaratgan bor qilg'ali jahonni yo'qdin paydo,
Jamoling husnina barchani qildi oshiqu shaydo.

Bu masalani Alisher Navoiy hazratlari butun borliq Yaratgan husnining mir'oti, ya'ni ko'zgusi ekanligini ta'kidlagan holda "Hayrat-ul abror"da

Mazhar olub husninga mirot-i g'ayb,
Jilva qilib anda hayoloti g'ayb.

deydi va mazkur dostonda yuqoridagi misralarga hamohang ravishda juda katta va chuqur falsafiy masala yuzasida gap ketadi:

Xoliqi ashyoki jahon ayladi,
Charxni paydovu nihon ayladi.

Bu boradagi buyuklarning fikrlari bir-biriga yaqin ekanini Ogahiy qalamiga mansub quyidagi "Taviz-ul oshiqin"ning hamd g'azalidagi bayti ham ko'rsatadi:

"Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingg'a,

[14] حفني باصف. قواعد اللغة العربية "البلاغة".- مصر: مكتبة الايمان – المنصورة.2009. – ص.11.
[15] Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Тошкент: 2018. – Б. 67.

Bu ko‘zgu ichra bo‘ldi necha naqshi bul ajab paydo”[16].

Ma’nosi: “Butun olamni tengsiz husninga mazhar ya’ni namoyishgoh aylaganing sababli mana shu ko‘zgu ichra bizga Sening qudratingni namoyon qiluvchi borliqdagi qanchadan-qancha ajablanarli naqshlar, kishi aqlini lol qoldiradigan ajoyibotlar paydo bo‘ldi”.

G‘azal davomida:

Ne gabr-u ne musulmon-u ne tarso, ne yahudiylar,
Ne mo‘min, ne muvahhidkim, anga quldur bari haqqo. –

der ekan shoir bir necha din vakillarini sanaydi: gabr ham, musulmon ham, otashparast va yahudiylar ham barchasi Yaratganning qulidir. Baytda qo‘llangan *gabr* so‘zini oladigan bo‘lsak, bu so‘z xususida mashhur avestoshunos olim Ibrohim Purdovud oromiy so‘zlardan bo‘lib, arabcha *kofir* so‘zi bilan o‘zakdosh deb aytgan. Ya’ni *gabr* so‘zi arabcha *kofir* so‘zining fonetik o‘zgarishidir.

“Tarso”[17] so‘zi lug‘atlarda nasroniy yoki otashparast degan ma’noni anglatadi. Ushbu so‘z etimologiyasi forsiy “tarsidan” - “qo‘rqmoq” ma’noli so‘z bilan bog‘lanadi. Birinchidan, “Xudodan qo‘rquvchi”, ikkinchidan, nasroniylar yoki otashparastlarga nisbatan qo‘llanilishi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, atalish tamoyillari ya’ni nominatsiya prinsiplariga ko‘ra, arab tilidagi rahb so‘zi ham aynan shu ma’noni bildiradi. Pahlaviy tilida *tarso tarsaq* shaklida qo‘llanilgan va aytish muhimki, *tars* – qo‘rqmoq so‘zi bilan bog‘langan va rus tilidagi qo‘rqoq ma’nosidagi *mpyc* so‘zi bilan o‘zakdoshdir.

Muvahhid so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham Alisher Navoiy asarlari lug‘atlarida ham o‘z aksini topmagan, “Farhangi zaboni tojiki” va uning yangi nashri “Farhange tafsirii zaboni tojiki”[18]da bu so‘z izohlanib, “Xudoga ishonuvchi va Xudoni yakka-yu yagona deb biluvchi” – deyilgan. Bu so‘z o‘zagida *vohid* – yagona so‘zi yotibdi.

Tarso so‘ziga kelganda “Lison-ut tayr”dagi tarso qiz obrazi juda mashhur:

Shayx ashk aylab ravon ruxsorig‘a,
Arzi iymon etti *tarso* yorig‘a, – deyiladi.

G‘azal mutolaasida davom etamiz:

Behisht ichra agar bo‘lmasa yodi, qa’r-i do‘zaxdur,
Aning yodi bila do‘zax erur chun jannat-i a’lo.

Hayratlanarlisi, bizda Hofiz Xorazmiy ijodidan Navoiy hazratlarining boxabar bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligi haqida faktlar yo‘q, lekin buyuk mutafakkirlar fikrlash tarzi, bayon uslubida bir-biriga naqadar yaqin bo‘lishini ushbu baytlar ko‘rsatib turibdi. Bayt mazmunidan anglashilishicha Haq taolo yodi bilan jannatga kirgan odam uchun do‘zax ham jannat kabi bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Hofiz Xorazmiy devoni poetikasining til birliklari kesimida tahlili** deb nomlanib, ushbu bobning birinchi faslida **fonetik vositalar lingvopoetikasi** yoritilgan. Lingvopoetikada fonetik vositalar tilning fonetik tizimi, ohang va urg‘u orqali badiiyat yaratishni nazarda tutadi. Bular

---

[16] Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд: Девон. Нашрга тайрловчилар Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z. 2014. – Б. 26.

[17] ‫قاطع‬ ‫برهان‬ . ‫تبريزی‬ ‫خلف‬ ‫بن‬ ‫محمد‬ ‫الدين‬ ‫شمس‬ 484 ‫کبير‬ ‫امير‬ ‫تهران‬ ‫معين‬ ‫محمد‬ ‫دکتر‬ ‫اهتمام‬ ‫با‬ . ١٣٨٦ .

[18] Sayfiddin Nazarzoda tahriri asosidagi “Farhangi tafsiriyi zaboni tojiki”. – Dushanbe , 2008.

ichida, albatta, birinchi navbatda, shoirning tovushlar ohangdoshligi orqali kishi ruhiyatiga ta'sir koʻrsata oladigan darajada san'atkorona foydalana bilishi koʻz olidimizga keladi. Nazarda tutilgan holat mumtoz filologiyada *tavzi* tushunachasi bilan ifodalangan.

"Tavzi" soʻzining lugʻaviy ma'nosi ulashish, tarqatishdir. Mazkur san'atda bir xil tovushni barcha soʻzlarga ulashib chiqishni nazarda tutib, "tavzi" deb ataganlar[19]. Shuning uchun tavzi faqat bir xil tovushlar bilan boshlanadigan soʻzlardan foydalanish deb ham tushunish toʻgʻri emas. Alliteratsiya (tavzi) — she'rda, jumladan, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishidir. Tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil boʻlgan ohangdorlik alliteratsiya deb yuritiladi.

> Qaro qoshing, qalam qoshing,
> Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
> Qilur qatlimga qasd, qayrab,
> Qilich qotil qaroshing, qiz... (E.Vohidov)

Tavzining oʻzbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiygacha boʻlgan eng sara namunalarini Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub desak, xato boʻlmaydi. Masalan,

> Ushbu soʻzga quloq tutar erdi,
> Hofizo, boʻlsa *loʻlu-yi lolo.* (57-gʻ.)

Baytda *loʻlu-yi lolo* birikmasi orqali tavzi hosil qilingan. *Loʻlu-yi lolo* birikmasidagi *loʻlu* yaltiroq (gavhar) degan ma'noni bildiradi. *Lolo*ning ham yaltiroq ma'nosi hamisha *loʻlu* soʻzining sifatlovchisi boʻlib keladi (Aliakbar Dehxudo). Hofiz Xorazmiyda ham *lolo* soʻzi yaltiroq ma'nosida kelganda *loʻli* soʻzi bilan izofiy birikma hosil qilgan. Jumladan,

> Shirin tudoqu soʻzunga quldur
> La'lu javohir *loʻlu-yi lolo.* (64-gʻ.)
> Etsam la'li labining sifatin goʻsh tutub,
> Bandalik xush soʻzuma *loʻlu-yi lolo* qilisar. (340-gʻ.)
> Vafoyi jon talab qilsang ka'bayi tanni pok ayla,
> Sadafing ichra kun topmadi qiymat *loʻlu-yi lolo*. (1-gʻ.)

Lola va *lolo* soʻzlarining ham fonetik, ham grafik (ularning yozilishi bir harf bilan farqlanadi) vosita sifatida shoirning boshqa she'rlarida ham koʻzga tashlanadi. Masalan,

> *Lola* boʻstonda aning orazinikim koʻrdi,
> Dogʻ bosdi yuzina toki boʻla *lolosi*. (929-gʻ.)

Mazmuni: "Lola boʻstonda uning yuzini koʻrgach, uning enagasi boʻlay deb yuzini dogʻ bosdi".

Bu baytda ham shoir aksar she'rlarida boʻlgani kabi bir necha vositalardan barobar foydalanadi. Jumladan, lola yuzida dogʻ boʻlishi va mahbubaning boʻstonga chiqishi oʻrtasida aloqaning badiiy dalolatlanishi husni ta'lilni, *dogʻ*

---

[19] Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 35.

so'zining ikki ma'nosi ham nazarda tutilishi iyhomni yuzaga keltirgan. Bunda *dog'*ning hozirgi o'zbek tilidagi *dog'* so'zidagi ma'nosidan tashqari *issiqlik, harorat; alomat, belgi, nishon, g'am, anduh*[20] ma'nolarining barchasi nazarda tutilgan.

> Qachonki, tushsam o'shul sarvi sarafroz bila,
> Tilarman anda base *nozini niyoz* bila. (21-g'.)

Shoirning quyidagi bayti uning o'z ona tilini nihoyatda ardoqlaganiga loyiq darajada tilimiz taraqqiyoti, ichki nizom va qonuniyatlarini yaxshi bilganini ko'rsatadi:

> Boshini dari muhabbatga osmag'uncha kishi,
> Sog'inmasunkim, ani song'a sonsalar sonda. (49-g'.)

Bayt mazmuni anglash uchun birinchi navbatda *sog'inmoq* fe'li ma'no qirralariga e'tibor qaratamiz. Eski o'zbek tilida "ko'rishni istab g'amgin bo'lmoq", "sog'inch his etmoq" mazmunidagi *sog'in-* (*sag'ın-*) fe'li ushbu mazmundan tashqari "hisoblamoq", "tushunmoq", "gumon qilmoq", "o'ylamoq" ma'nolarini beradi. Shuningdek, *sag'ınturmoq* fe'li "eslatmoq", "esga solmoq"; "esga olmoq" mazmunlariga ega[21].

Ba'zan Hofiz Xorazmiy fonetik vositalardan unumli foydalangan holda aslida boshqa-boshqa, hatto genetikasi boshqa-boshqa tillarga mansub tovush tarkibi yaqin so'zlardan ohangdoshlik keltirib chiqaradi:

> Ishq yo'lida, Hofiz, o'zungni qila ko'r *fard*,
> Eshitmagu ko'rmak tilasang holati *fardo*.

Baytdagi *fard* so'zi arabcha bo'lib, yakka, yagona degan ma'noni, *fardo* esa forscha bo'lib, ertaga degani.

Quyidagi baytda esa *qanda*? (qaerda?) so'roq olmoshi va *qonda* (qon ichida) paronimiyasidan unumli foydalanilgan:

> Oyo nigori gulandom, qandasan *qanda*,
> Kim izdayu yuragim g'arq bo'ldi ol qonda? (49-g'.)

Ushbu ohangdoshlikning ta'siri takror (*qandasan, qanda*?), mubolag'a (yurakning qizil qonga botishi) bilan uyg'unlashgan holda yana ham oshirilgan.

Bu misollarning barchasi Hofiz Xorazmiy ona tilimiz fonetik imkoniyatlari, ohang jozibasini juda yaxshi bilgan va his qilgan ijodkor bo'lganligidan darak beradi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **"Grafik vositalar lingvopoetikasi"**ga bag'ishlanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Y.Is'hoqovning "Harfiy san'atlarga oid ishlaridan"[22] tashqari bu mavzuda M.Sharipova, Z.Mamajonov[23] kabi olimlar tomonidan ham maqolalar e'lon qilingan.

Arab alifbosi asosidagi eski yozuvimizdagi harflar vositasida badiiy san'at

[20] https://play.google.com/store/apps/details?id=com.farhang.loghat.bismuth
[21] Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 571.
[22] Исоҳоков. Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 328 b.
[23] Шарипова М. Ҳарфий санъатлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – №3. – Б. 82-83.; Мамажонов З. Ҳарфий санъатлар хусусида / "Филологиянинг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2008. – Б. 25-28.

yaratish faqatgina shaklga oid masala bo'lmay, ko'zlangan maqsadni aniq va go'zal shaklda ifodalash imkoni ham sanalgan.

Hofiz Xorazmiy ijodida ham harfiy vositalar yordamida o'xshatishlar qilish, obrazlar yaratish ko'p kuzatiladi. Masalan, *alif* ا harfi bir necha ma'no ifodalashga xizmat qilgan:

1) Yakkalik, tanholik; bemisllik:

Yaktoyi ishq *alif* bikinkim qaddim edi, vale,
Chun dol qildi oxiri zulfi dutoh ila. (5-g'.)

Alifning bu ma'noni kasb etishi alifboda birinchi o'rinda turishi, abjad hisobida bir raqamini ifodalashi, shakldoshiga ega emasligi kabi jihatlari bilan bog'liq. Shuning uchun quyidagi baytda shoir alifning qayd etilgan xususiyatlarini nazarda tutadi:

2) Tiklik, mag'rurlik. Harfning shakliy ko'rinishi

Sarv qading necha kim o'xshar *alif*ga illo,
Bo'la bilmas *alif* aning biki shirin harokot. (103-g'.)

3) Rasolik, to'g'rilik. Bu jihatdan *alif* ا *yo* ى bilan zidlanadi. Bunda ma'shuq qomati alifga, oshiq qaddi yoyga o'xshatilishi bilan birga, biri alifboning boshida, biri oxiridagi joylashishi jihatidan ham zidlanish bor.

Tiyri qading *alif* bikin yakto
Bo'lg'ali bo'ldi qomatim chun *yo*. (57-g'.) yoki
Oy tesam yarashur ko'rklu aning yuzinakim,
O'qtak qaddi *alif-u* yo biki qoshi *yosi* bor. (291-g'.) yoki
Tikdi qadding niholini jonda,
Alife yangli bog'bon ishqing. (537-g'.)

Shuningdek,

Baloyi ishqdin bo'ldi ko'zumning chashmasi daryo,
Aliftak qaddim ul daryoning ichra ko'rinur yakto. (10-g'.)

Jon جان so'zining o'rtasida harf *alif* bo'lgani bois bu bilan bog'liq so'z o'yinlari mumtoz adabiyotimiz vakillarining ko'pchiligi ijodida uchraydi. Jumladan, Hofiz Xorazmiyda o'qiymiz:

Jon ichinda o'shaning qaddi *aliftak* ko'runur,
Ne latofatlig' aning xush qaddi bolosi bor. (291-g'.)

Xuddi shu yo'sinda *nun*, *dol* harflari orqali qo'llanilgan she'riy san'atlar haqida mulohazalar berish barobarida Hofizning grafik vositalardan keng va o'rinli hamda intizomli – muayyan tartiblar asosida foydalanishi uning o'zbek tilining nazariy masalalarini ham puxta bilganini tasdiqlaydi.

Bobning uchinchi faslida "**Hofiz Xorazmiy she'riyatida onomastik birliklar lingvopoetikasi**" haqida so'z boradi.

G.Rixsieva "Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar"[24] maqolasida lingvopoetika doirasini poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik morfemika, poetik semantika, poetik sintaksis yo'nalishlari bilan to'ldirishni taklif qilgan bo'lsa, D.Andaniyazova uni onomastik poetika, ya'ni onomopoetika bilan

---

[24] Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. – № 2. – Б. 84-86.

to‘ldirishni lozim deb biladi[25].

Shoir devonining onomastik ko‘lami boshqa she’riy asarlar kabi asosan antoroponimlar, toponimlar, gidronimlar, urbonimlar, oronimlar kabi ko‘lamlardan iborat.

1) *Antroponimlar.* She’riy asarda qo‘llanilgan antroponimlar o‘z xususiyatiga ko‘ra, odatda, davr hukmdor doiralari vakillari nomlari vositasida bo‘ladiki, buni Hofiz Xorazmiy devoni onomastik ko‘lami misolida ham ko‘rishimiz mumkin: masalan, quyidagi baytda tilga olingan Ibrohim sulton Amir Temurning ma’rifatli nabiralaridan biri Ibrohim Sulton ibn Shohruh (1394-1435)dir[26]:

Guliston yuzlu, ey soqiy, saning ishqing manga jondur,
Ichalim bodanikim, davri Ibrohimi Sultondur. (182-g‘.)

Shoir:

Xayoli do‘st ko‘ngul gulxanida yonmadi,
Ko‘ngulda ishq o‘tidur chu nori Ibrohim (644-g‘.)

Ya’ni Do‘st xayoli ko‘ngil gulxanida yonmadi, dildagi ishq o‘ti Ibrohim olovi kabidir baytida ham Ibrohim alayhissalom, ham Ibrohim Sultonni nazarda tutib iyhom hosil qilayotiga shubha yo‘q, nazarimizda.

She’riy asarlardagi antoroponimlarning katta qismi payg‘ambarlar nomlari, mashhur adabiy va afsonaviy shaxs nomlari, umuman olganda, talmeh uchun asos ismlar bo‘lishi tabiiy. Masalan, Hofiz devonida “Qur’on”da zikr etilgan payg‘ambarlarning ko‘pchiligi tilga olinib, qur’oniy qisslarga ishora qilinadi:

Gar zulfi birla xoli sifatin eshitmasa,
Odam qachon ilingay edi domu donag‘a. (45-g‘.)

Bunda “Baqara” surasining “Biz yana aytdik: “Ey, Odam, sen va jufting (Havvo) jannatda yashangiz va xohlagan joylaringizda undan (ne’matlaridan) bemalol tanovul qilingiz. Faqat mana bu daraxtga yaqinlashmangiz, (aks holda) zolimlardan bo‘lib qolursiz”[27] – oyatiga ishora qilinmoqda.

2) *Toponimlar.* Hofiz Xorazmiy she’riyatida toponimlar quyidagi jihatlari bilan poetik vazifa bajaradi: Biror joyning mashhur jihatlariga e’tibor munosabati bilan. Sharq poetikasida ayrim toponimlar o‘zining biror mahsuloti, xususiyati kabi jihatlari bilan topopoetonimga aylangan. Masalan, Badaxshon la’llari bilan, Kashmir sohir va sehrlari bilan mashhur bo‘lgan.

Sanga shogird erur joduyi *Kashmir*
Bu fan ichra ko‘zungdur kofiri ustod. (131-g‘.)

3) “Gidronimlar”[28]. Mumtoz adabiyotizda daryo nomlari ko‘pincha oshiq ko‘z yoshlariga timsol sifatida ishlatiladi. Jumladan, Hofiz Xorazmiy she’rlarida ham *Nil, Firot, Dajla, Jayhun* daryolari ayni shu ifoda uchun xizmat qiladi:

Dam-badam la’li hayoli birla ko‘zdin qon oqar

[25] Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (Phd) дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 19.
[26] https://teletype.in/@uzasgzt/zIUkdzfEd5K
[27] Қуръони карим маъноларининг таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти. 2001. – Б. 6.
[28] Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.

Andayinkim, suvdin oqsa to‘lu Jayhun lab bila. (15-g‘.)

4) “Etnonimlar”[29]. *Turk* so‘zi eski turkiy tilda bitilgan tarixiy asarlarda *go‘zal; kuch, quvvat; kuchli, quvvatli; yetarli, yetuk* kabi turli ma’nolarda turdosh ot sifatida qo‘llanilgan. Hofiz devonida *turk* so‘zi 70 ta baytda turdosh ot sifatida kelgani ko‘rinadi[30].

Dissertatsiya ishining **Uchinchi bobi Leksik birliklarning mumtoz matn lingvopoetikasida alohida o‘rni** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli **“Shakldosh so‘zlarning mumtoz matn lingvopoetikasidagi o‘rni”** mavzusiga bag‘ishlanib, omonim so‘zlar orqali Hofiz Xorazmiy lirikasida tajnis shoir hissiyotlarining badiiy ifodasi uchun yordamchi vosita sifatida yuzaga kelganligi ochib beriladi.

Tajnis mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llanilgan san’at. Bu san’at eng qadimgi yozma yodgorliklarimizdan beri qo‘llanib kelayotgan bo‘lishiga qaramay, unga doir nazariy masalalar, asosan, XIII-XV asrlarda yaratilgan Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq as-sehr”, Shamsiddin Muhammad ibn Qays Roziyning “Al-mu’jam fi maoir al-ash’or al-Ajam” (1233-yil), Sharafiddin Hasan ibn Muhammad Romiy Tabriziyning “Hadoiq al-xaqoiq” (1392-yil), Ali ibn Muxammad Toj al-Xaloviyning “Daqoiq ash-she’r” (XIV asr), Vohid Tabriziyning “Risolai jam’i muxtasar” (1417-yil), Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye al-afkor fi sanoye al-ash’or” (1489-yil), Atoulloh Husayniyning “Badoye us-sanoye’” (1465-yil) asarlarida bayon qilingan[31]. O‘zbek adabiyotshunosligida mazkur masalada qator maqola va lug‘atlarda[32] yetarli ma’lumotlar bayon qilingani uchun ularni takrorlashga ehtiyoj sezilmaydi, albatta. Tajnis masalasiga o‘zbek tilidagi ilk adabiyot nazariyasiga bag‘ishlangan asar *“Funun ul-balog‘a”*da ham alohida e’tibor qaratilgan[33].

Shuningdek, tajnis nihoyatda tabiiy, boshqa she’riy san’atlar bilan vobasta holda shakllanadi. Masalan, shoir ko‘plab o‘rinlarda *savdo* omonimidan mohirona foydalanadi:

Qila bilmak tilar bo‘lsang qaro zulfi bila *savdo*,
Boshingdin ketmasun bir dam havo-yi ishq ila *savdo*. (11-g‘.)

